

TARIX DARSALARIDA INTEGRATIV YONDASHUVNING AHAMIYATI.

Jalilova Zilolaxon Baxramovna

Nizomiy nomidagi TDPU

“Tarix” fakulteti 401-guruh talabasi

Annotatsiya

Maqlada ta’limda fanlarni o’qitishda integratsiyalashish jarayoni hamda tarix darslarini o’qitishda integrativ yondashuvning ahamiyati haqida so’z boradi. Shuningdek, umumta’lim maktabalarida tarix darsliklarida berilgan mavzularni bir-biriga bog’lagan holda tushuntirish usullari va metodlarini ishlab chiqish.

Kalit so’zlar: integratsiya, integrativ yondashuv, metod, tadqiqot, fanlararo aloqadorlik, yangi pedagogik texnologiyalar.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning “Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og’ishmasdan, qat’iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatidabugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko’taramiz. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo’lib, dunyo miqyosida o’z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo’sh kjelmaydigan insonlar bo’lib, kamol topishi, baxtli bo’lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor, kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”¹ -degan fiklari bugungi kunda ta’lim tarbiyaga davlat siyosati darajasida e’tibor berilayotganidan dalolatdir. Bugungi kunda ta’lim sohasiga har qachongidan ham ko’proq ahamiyat berilmoqda. 2023-yil 11-sentabrda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston-2030” strategiyasi to’g’risida”gi 158-sen Farmoni qabul qilindi². Bu strategiyalarning ustuvor yo’nalishlaridan biri aholi talablariga va xalqaro standartlarga to’liq javob beradigan ta’lim tizimini yaratish etib belgilangan. Umumiyo’rta ta’lim tizimida “Ta’lim uchun qulay muhit” dasturini amalga oshirish, umumiyo’rta ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish, pedagog kadrlar maqomini oshirish, ularning bilimi va xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish kabi islohotlar belgilab qo’yilgan.

Bu esa, o’z navbatida ta’limning birlamchi ishtirokchilari bo’lgan o’qituvchilarga yanada katta mas’uliyat yuklaydi. Chunki bugungi kun o’qituvchisi har sohada

¹ Mirziyoyev Sh.M: Milliy taraqqiyot yo’lini qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko’taramiz. I jild-Toshkent: O’zbekiston, NMIU. 2017-B146

² O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston-2030” strategiyasi to’g’risida”gi 158-sen Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>



yetuk va bilimdon bo'lmog'i shart va zarurdir. O'qituvchi o'quvchilarga fanga doir yetarli bilimlarni berish, fanga bo'lgan qiziqishini oshirish bilan birgalikda ularning tasavvurida fanlarning o'zaro uzviy bog'liqligini, biri ikkinchisini taqozo etishi to'g'risidagi muayyan tushunchani hosil qilishi zarur. Bu kabi masalalarda integratsiyaning - fanlararo aloqadorlikning o'rni juda muhimdir.

Tarix darslarini tashkil etishda integrativ yondashuvdan keng foydalanish - integratsiyalab o'qitish usullarini takomillashtirish, o'quvchilarni fanga doir bilimlarni puxta o'zlashtirishda yetakchi samara beradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Tarix, tarixiy haqiqat va uni ilmiy jihatdan xolislik asosida o'rganish, ayniqsa uni yosh avlodga yetkazib berish bugungi tarix fani oldida turgan eng dolzarb masalalardan biridir. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlab o'tganidek, "Millatimiz tarixi haqidagi haqiqat yurtimizning fidoyi, o'z yo'lidan, maslagidan, so'zidan qaytmaydigan farzandlariga ochilishi lozim. Bilishimiz shart bo'lgan sahifalarni qunt bilan varaqlashimiz hammamiz uchun ham qarz, ham farz"³. Zamonaviy tarix fanida tarixiy xotira alohida tamoyil emas, balki fanlar aro yondashuv asosida shakllanib borayotgan alohida maxsus fan sohasiga aylanmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning "O'z tarixini bilmaydigan kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo'q"⁴ fikrlarini keltirishimiz mumkin.

Keyingi yillarda ta'limda integrativ yondashuv jarayonlarini tadqiq qilishda ko'plab izlanishlar olib borildi. Shuningdek, Tarix darslarini integratsiyalab o'qitishning samaradorligi va bu jarayonga xos ta'lim metodlarini ishlab chiqish kabi masalalar ko'ndalang qo'yildi. Xususan, D.Alimova, Z.Ilhomov, U.Mansurov, A.Sa'diyev singari olimlarning ishlarida fanlararo integratsiyaning tarix fanini ta'limidagi o'rni xususida qimmatli fikrlar uchraydi. Tarix fani har doim boshqa fanlar bilan o'zaro munosabatda bo'lgan. Jumladan, Z.Ilhomov, D.Alimovalarning "Tarix metodologiyasi" kitobida "Tarix fani tadqiqotlarida fanlararo yondashuv" bo'yicha olib borgan izlanishlari ham alohida ahamiyat kasb etadi.

"Integratsiya" – lotincha integration-tiklash, to'ldirish; integer – butun so'zidan bo'lib, fanlarning yaqinlashishi va o'zaro aloqa jarayoni; differentsiatsiya bilan birga kechadi. ayrim bo'laklarning yoki elementlarning bir-biriga qo'shilishi, bir

³ Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin -T.: "O'zbekiston", 1996 - 92-b

⁴ Karimov I.A. Yuksak ma'anaviyat yegilmas kuch -T.: "Ma'anaviyat" 2009 - 4-b



butunga aylanishi, yaxlitlanishidir⁵. Integratsiyani tafakkur o'stirish omili sifatida qarab, uni fanlararo aloqa va ta'lim shakllarini sintezlash tarzida talqin etish mumkin.

Muhokama va natija

Ma'lumki, o'quv fanlari miqdorini oshirish, albatta, har doim ham ijobiy natija beravermaydi. Chunki bugungi zamonaviy texnologiya son orqasidan quvish emas, balki sifat o'zgarishlarining ham bo'lishini taqozo etmoqda. Bu borada rivojlangan davlatlar tajribasidan foydalanish mumkin. Chunki ular allaqachon o'z ta'lim tizimiga integratsiyani olib kirgan va integrativ fanlarni joriy qilgan. Buyuk Britaniya, Koreya, Shveysariya, Vengriya, AQSh, Rossiya va boshqalar shular jumlasidandir. Bugungi kunda bizning ta'lim tizimimizga ham integratsiyalashish jarayoni kirib keldi. Integratsiya – “butun” degan ma'noni bildiradi, demak, bu tafakkur o'sishi jarayonining turli qism va elementlarini bitta butunga birlashtirishdir. Bu esa, ta'limda fanlararo aloqadorlikni, fanlarni bir-biri bilan chambarchas bog'liq holda o'qitishni ko'rsatadi. Ta'lim tizimida ona tili darslarini olib borishda, bu fanni bevosita geografiya,adabiyot fanlari bilan bog'lab o'qitish yaxshi natija beradi. Masalan, 6-sinf ona tili darsligini olaylik. Ushbu darslikda “Qadimgi Yunoniston.Antik davrning boshlanishi” bo'limini o'rganish uchun 10 soat ajratilgan. Bu bo'lim va undagi mavzularini geografiya faniga bog'lab xaritalar bilan ishslash, adabiyot faniga bog'lab Gomerning “Iliada”, “Odisseya” asarlarini o'qib, tahlil etilsa, bu ham ta'limiy, ham tarbiyaviy mohiyat kasb etadi.

Ma'lumki, ta'lim bosqichlarida, mavzular oddiydan murakkabga tomon o'sib boradi. Masalan, 8-sinfda o'quvchilar tarix darslarini Jhon va O'zbekiston tarixiga bo'lib o'tishadi.Xronologiya asosida bu darslardagi davrlar takrorlanadi. Masalan, XV-XVI asrlarda jahon tarixida yevropalik sayyoohlar tomonidan Afrika, Amerika ,Osiyo va Okeaniyaga dengiz orqali yo'llar ochilishi va bu hududlarda yangi yerlarni kashf etilishi ya'ni “Buyuk geografik kashfiyotlar” davri bo'lsa yurtimizda ya'ni O'rta Osiyo hududlarida Temuriylar imperiyasining tashkil topishi,gullab yashnashi va inqirozi bilan tavsiflanadi.Bu tarixiy jarayonlarni xronologik ketma-ketlikda, xaritalar yordamida,fan-ma'adaniyat sohalarini bevosita geografiya, adabiyot fanlariga bog'lab tushuntirib berish lozim. Buning uchun o'qituvchidan o'quvchilarga nazariy bilimlarni yetkazib berish va ularni amalda qo'llay olish uchun o'quvchilarda yetarli ko'nikma va malakalarni hosil qilish talab etiladi.

⁵O'zbekiston milliy ensiklopediyasi-T.: “Davlat ilmiy nashiryoti”,2002-4-jild 179-b



Yangi mavzu bayonidan so'ng, o'qituvchi yangi mavzuni bevosita boshqa fanlar bilan bog'laydi. Buning uchun o'qituvchi o'quvchilar qo'liga har xil turdag'i sur'atlar aks etgan tarqatma materillaridan foydalanishi mumkin. Bu bilan o'qituvchi darsning qiziqarli o'tishi va shu bilan bir qatorda o'quvchining faol bo'lishiga imkon yaratadi. Masalan, buyuk geografik kashfiyotlarda qatnashgan sayyoohlar sur'atlari, Temuriy shaxzodalar sur'atlari, o'sha davrda ilm-fanga o'z hissani qo'shgan olim, mutaffakirlar sur'atlaridan foydalanish mumkin. O'qituvchi bu metodlar bilan o'quvchilarni xaritalar joy nomlarini mukammal bilishiga, ajdodlarimiz haqida ko'proq ma'lumot olishga, mavzuni mustahkamlashga erishiladi.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, tarix darslarini adabiyot, geografiya bilan uyg'unlikda olib borish, o'quvchilarning badiiy-estetik dunyo qarashlarini yanada boyishiga olib keladi. Aynan tarix fanida biron bir nazariy ma'lumot o'r ganilayotgan bir paytda o'quvchilarga aynan o'sha davr adabiyotdan asarlar keltirilib, tahlil qilish lozim. Bu keyinchalik ularning ilmiy salohiyatlarini yanada oshirishga, oliy ta'limda tahlil yuzasidan bilim, ko'nikma, malakalar bo'yicha mustahkam bilimga ega bo'lib, tarix bo'yicha nazariy ma'lumotlarini mustahkamlab borishda yordam beradi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Mirziyoyev Sh.M: Milliy taraqqiyot yo'lini qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. I jild-Toshkent: O'zbekiston, NMIU. 2017-B146
2. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin.-T.: "O'zbekiston", 1996.-92b
3. Karimov I.A. Yuksak ma'anaviyat yegilmas kuch.-T.: "Ma'anaviyat" 2009.-4-b
4. D.Alimova, Ilhomov Z, Tarix fani metodologiyasi – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2018,
5. Uktamjon Mansurov. Tarix o'qitish metodikasi – T.: BROK CLASS SERVIS, 2023
6. Musayev U. Integratsiya darajalari "Xalq ta'limi" – 2002
7. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi-T.: "Davlat ilmiy nashiryoti", 2002 4-jild-179-b
8. Lexuz.uz sayti